AHMAD DONISH: HAYOTI, G‘OYALARI, MEROSI

Axmedova Zebiniso Azizovna
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.
Buxoro, O‘zbekiston.
E-mail: axmedova.zebiniso@bsmi.uz

Annotatsiya: Maqolada Ahmad Donishning hayoti, g‘oyalari, ilmiy faoliyati, ma’naviy merosi tahlil qilingan. Ahmad Donish - o'z davrining buyuk mutafakkiri, davlat arbobi bo'lib, uning asarlari Markaziy Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekistonda ma'naviyat va ilm-fan rivojiga ahamiyati beqiyos. Maqolada Donishning falsafiy qarashlari, ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyati va shu bilan birga, uning milliy va ma’naviy qadriyatlarni saqlashdagi roliga asosiy e`tibor qaratilgan. Shuningdek, mutafakkirning ilmiy va ma’naviy merosining bugungi kundagi o`rni ochib berilgan.

Kalit so’zlar: Ahmad Donish, ma’naviy meros, ilm-fan, falsafa, adabiyot, O'rta Osiyo, ta'lim, milliy qadriyatlar, ma’naviy rivojlanish, tarixiy meros, jamiyat.

Аннотация: В статье анализируется жизнь, идеи, научная деятельность, духовное наследие Ахмада мудреца. Ахмад Дониш-великий мыслитель своего времени, государственный деятель, значение его произведений для развития духовности и науки в Центральной Азии и, в частности, в современном Узбекистане неоценимо. В статье основное внимание уделяется философским воззрениям мудреца, его деятельности в сфере образования и в то же время его роли в сохранении национальных и духовных ценностей. Также раскрывается роль научного и духовного наследия мыслителя в наши дни.

Ключевые слова: Ахмед мудрый, духовное наследие, наука, философия, литература, Средняя Азия, образование, национальные ценности, духовное развитие, историческое наследие, общество.

Annotation: the article analyzes the life, ideas, scientific activity, spiritual heritage of Ahmad Donish. Ahmad Donish is a great thinker, statesman of his time, whose works are incomparable in importance for the development of spirituality and science in Central Asia, in particular in present-day Uzbekistan. The article focuses on the philosophical views of Wisdom, its activities in education and, at the same time, its role in maintaining national and spiritual values. The role of the scientific and spiritual heritage of The Thinker is also revealed today.

Keywords: Ahmad wisdom, spiritual heritage, science, philosophy, literature, Central Asia, education, national values, spiritual development, historical heritage, society.

Kirish

ISSN 3030-3907

Ahmad Donish - XIX asrning mashhur olimlaridan biri sifatida Markaziy Osiyo ilm-fani va ma'naviyatining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. U nafaqat yirik mutafakkir, balki davlat arbobi sifatida ham tanilgan. Ahmad Donishning ilmiy merosi va falsafiy qarashlari nafaqat uning zamonasi, balki keyingi asrlar uchun ham katta ahamiyatga ega.

Donishning falsafiy qarashlari va ma'naviy g'oyalari u yashagan davrning siyosiy va ijtimoiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda, ilmni va ma'rifatni eng oliy qadriyat sifatida qabul qiladi. U ilm va ma'rifatga bo'lgan hurmatini, milliy va dini qadriyatlarni rivojlantirish zaruriyatini har tomonlama targ'ib qilgan.

Adabiyotlar tahlili. Ahmad Donishning hayoti va ma’naviy merosini tahlil qilishda bir qancha ilmiy asarlar va adabiyotlar muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ahmad Donishning hayoti va ma’naviy merosini o‘rganishda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanish mumkin:

Tarixiy-tahliliy metod. Ahmad Donishning hayoti va faoliyatini to‘liq tushunish uchun tarixiy-tahliliy metodni qo‘llash muhimdir. Bu metod orqali uning yashagan davrining siyosiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlari o‘rganilib, Donishning bu sharoitlarda qanday qarashlar va ilmiy fikrlar shakllantirganini tahlil qilish mumkin. Tarixiy kontekstni hisobga olgan holda, Donishning asarlaridagi fikrlar va qarashlar orasidagi bog‘liqlik aniqlanadi.

Kontseptual-tahliliy metod. Ahmad Donishning falsafiy, ma’naviy va ilmiy merosini chuqur tahlil qilish uchun kontseptual-tahliliy metoddan foydalanish zarur. Bu metod yordamida Donishning asarlaridagi asosiy g‘oyalar, falsafiy qarashlar, axloqiy va ma'naviy tamoyillar aniqlanadi. Asarlarni tahlil qilishda, Donishning ilmiy metodologiyasi, tafakkur uslubi va o‘zi yaratgan tushunchalarning mazmuni ochib beriladi.

Falsafiy-tahliliy yondashuv. Ahmad Donishning falsafiy qarashlarini o‘rganishda falsafiy-tahliliy yondashuvni qo‘llash zarur. Bu metod orqali Donishning falsafiy fikrlarini yanada chuqurroq tahlil qilish va uning hayotidagi asosiy g‘oyalar, masalan, ilm, ma'naviyat, axloq, adolat va inson haq-huquqlari kabi muhim masalalarni o‘rganish mumkin.

Ahmad Donishning hayoti va ma'naviy merosini o‘rganish metodologiyasi, tarixiy, falsafiy, adabiy va ijtimoiy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu metodlar orqali uning asarlari va fikrlarining chuqur tahlili amalga oshiriladi, shuningdek, uning ilmiy va ma'naviy g‘oyalari bugungi jamiyatda qanday ahamiyatga ega ekanligi tushuniladi. Maqolada qo‘llaniladigan metodologiya, Donishning merosini keng qamrovli va chuqur o‘rganishga imkon beradi.

ISSN 3030-3907

NATIJALAR. Ahmad Donishning hayoti va ma’naviy merosiga oid olib borilgan tadqiqotlar, uning ilmiy va ma’naviy ta'sirining yanada chuqurroq tushunilishini ta'minladi. Tadqiqotlar davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Ahmad Donishning ilmiy yondashuvlari va metodologiyasi. Tadqiqotlar natijasida, Ahmad Donishning ilmiy yondashuvlari va metodologiyasi aniqlandi. Uning asarlari nafaqat o‘z zamonida, balki keyingi asrlarda ham ilmiy tafakkur uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Donish ilmiy bilimlarni chuqur tahlil qilishga asoslangan, tizimli va ilmiy metodlardan foydalanib, tabiat va inson haqidagi bilimlarni rivojlantirgan. U ilmni barcha sohalarda rivojlantirishni maqsad qilib qo‘ygan va bu maqsadga erishishda zamonaviy usullarni qo‘llagan. Tadqiqotlar Donishning ilmiy yondashuvlaridagi tarixiy, falsafiy va ijtimoiy kontekstlarni aniq ko‘rsatdi.

Falsafiy qarashlar va ma’naviy meros. Ahmad Donishning falsafiy qarashlari va uning ma’naviy merosi o‘rganilganida, uning insoniyatning axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy g‘oyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Donishning asarlarida ilm-fan, ma'naviyat va axloq bir-birini to‘ldiruvchi elementlar sifatida birlashtirilgan. Donishning fikrlarida ilmiy va diniy tafakkur uyg‘unlashgan va bu uning o‘z davridagi, shuningdek, keyingi davrlar uchun ham muhim merosini tashkil etgan.

Donish qarashlarining ilmiy va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishdagi o‘rni. Tadqiqotlar, Donishning ilmiy va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishdagi muhim o‘rnini tasdiqladi. Uning asarlari O'rta Osiyo va butun Markaziy Osiyo madaniyatida ilm-fan va ma'naviyatni birlashtirgan muhim vosita sifatida qabul qilinadi. Donishning "Hikmat ul-lugat" va "Bahr ul-makhbas" kabi asarlari faqat ilmiy ishlar emas, balki ma'naviyatni yuksaltirish, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlarni o‘zida mujassam etadi. Tadqiqotlar, Donishning ilmiy va ma’naviy g‘oyalari bugungi jamiyatda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

MUHOKAMA. Taniqli olim, professor Ibrohim Haqqulning “Ahmad Kalla” nomli essesida shunday satrlar bor: “O‘n to‘qqizinchi asrdagi Buxoro sharoitida Ahmad Donishdek olim, adib, mutafakkir va davlat arbobining kamol topishi hayratlanarli hol…Ilm-fanning sayozlashuvi, ma’rifat bo‘stonlarining qovjirashi, hurriyat nurlarining so‘nishi Buxoroning tinka-madorini quritgan edi. Davlat va hokimiyat Buxoroi sharif ahli xohish-irodasiga zid bo‘lgan aqida va orzu-havaslarga tobe edi…Rost so‘z, to‘g‘ri fikrning bir chaqalik qiymati bo‘lmagan ana shunday qaltis sharoit va zerikarli muhitda Ahmad Donish saroy xizmatida yurgan… Ahmad Donish hayotni sevib, hech bir to‘siq va qarshilikni

ISSN 3030-3907

pisand etmay mardona kun kechirdi. Shu boisdan ham uning asarlari rostlik, matonat ruhi bilan sug‘orilgan”.

Axmad Donish XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr ibtidosi ma’naviy xayotida burilish nuqtasini boshlab bergan.

Ahmad Donish o‘z asri uchungina emas, bizning davrimiz uchun ham dono ustoz, bag‘rikeng muallim, ilg‘or fikrli, matonatli rahnamo, e’tiqod va maslagiga sadoqatli shaxs sifatida qadrli. “Men dunyoni o‘z ixtiyorim bilan tashlaganim yo‘q, - deydi Donish, - balki ko‘p yillar o‘tib orttirgan tajribam orqali ma’lum bo‘ldiki, mening baxtli bo‘lishim molu-dunyoga qiziqmasligim va oddiy hayot kechirishimda ekan. Chunki menda yashirinib yotgan nafs va shaytoniy ishlarning ko‘pligi o‘zimga ayondir”.

Ustoz Sadriddin Ayniyning “Esdaliklar” asarida Ahmad Donish haqida shunday ma’lumot keltirilgan: “U ajoyib odamning nomi Ahmad Mahdum, uning adabiy taxallusi Donish, ilmiy taxallusi muhandis va qiziqishi munajjimlik ekan. U odamning boshi haddan ortiq katta bo‘lganidan, unga “Kalla” degan nom bergan ekanlar. Odamlar uni Ahmad Mahdum, Ahmad Mahdumi Donish, Ahmad Mahdumi muhandis, Ahmad Mahdumi munajjim yoki butunlay qisqartirib Ahmad Kalla deb yuritar ekanlar. Ammo u o‘zini hazil bilan “Ahmadi Porina”(ya’ni, “o‘tgan yilgi Ahmad”) der va “odamlar meni ne desalar desinlar”, men hamon “Ahmadiporinaki budam, hastam”(ya’ni, men hamon o‘sha bulturgi Ahmadman, hozir ham o‘shaman) der ekan”.

Bu shaxs Buxoro qozikaloni Sadri Ziyo tomonidan “rasm chizishda Behzodu moniy, astronomiyada Ulug‘bek Ko‘ragoniy, hattotlikda Mir Ali, musiqada Zuhrai falak, jadvalshunoslikda Mir Shafe’ro Soniy, shifokorlik va tabobatda Abu Ali, sahovatda Hotam Toy, she’r yozishda Sa’di Sheroziy, nasrda Husayn Koshifiy darajasiga yetgan edi”, deb ta’riflangan, qomusiy bilim sohibi bo‘lganligi bois zamondoshlari tomonidan - Ahmad mahdum, - Ahmad mahdumi donish, - Ahmad mahdumi muhandis, - Ahmad mahdumi munajjim, - Ahmad kalla nomlari bilan ulug‘langan.

Odamlarga, xususan, madrasa talabalariga turli kitoblardan nusxa ko‘chirib, ularni har xil rasmlar, turli-tuman naqshlar bilan bezab, moddiy ahvolini yaxshiladi, iste’dodli naqqosh va kotib sifatida shuhrat qozondi. O‘z davrining ilg‘or va har taraflama bilimli kishisi bo‘lib yetishadi va 100 dan ortiq turli olimlarning ko‘lyozmalarini ko‘chiradi. Ahmad Donish “Haft qalam” nomiga ega bo‘lgan Buxoro hattotlik maktabi vakillaridan biridir.

Hattotlik, rassomlik va naqqoshlikni puxta egallagan, shuningdek, munajjimliqdan yaxshi xabardorligi bilan Nasrullaxon nazariga tushgan. Uning amir Muzaffar taklifiga ko‘ra 1865-yilda “Manozir ul-kavokib” (“Sayyoralarning

ISSN 3030-3907

joylashishlari”) nomli ilmi nujumga oid kitob yozganligi bu sohani ham mukammal bilganligidan dalolat beradi.

Ahmad Donish Buxoro shahri tarixi, uning joylashish o‘rni, geografiyasiga tegishli qimmatli ma’lumotlar yiqqan, Buxoro shahrining tarh ya’ni sxema-planini qog‘ozga tushirgan, bunda shaharning barcha inshoot, bino, suv yo‘llari, ko‘chalari nomlarini birma-bir sanagan. Buxoro tarixini o‘rganishda bu faktlar muhim tarixiy manba ekanligi bilan qadrlidir. Rangli xarita yaqin tariximiz haqida ma’lumot beruvchi muhim ashyoviy manba sifatida ilmiy qimmatga ega va olimning qiziqish doirasi kengligidan dalolat beruvchi noyob ilmiy meros.

“Ahmad Donishning, - deydi akademik Ibrohim Mo‘minov, - Fuzuliyning ozarbayjon tilida yozilgan she’rlaridan olgan parchalari juda e’tiborli. Bu esa Donishning Fuzuliy g‘oyalari, uning astronomiya haqidagi fikrlari bilan qiziqqanidan dalolat beradi”.

Ustoz Ayniyning hikoya qilishicha, “Mir Arab madrasasida 300 dan ortiq tolibi ilmlar, mullalar o‘qir edi. Shu madrasada Ahmad Mahdum Donishning hujrasi bor edi. Uni Ahmad Kalla, deb atar edilar. Haftada bir marta, kechqurun uyidan o‘zining hujrasiga kelar edi. Mullalar uni olim va shoir deb atar edilar. Men u bilan tanishishni judayam xohlar edim, ammo buning uchun men hali juda yosh edim. O‘sha yili Sharifjon Mahdum Buxoroga qaytdi. Ahmad Kallaning “Nodir voqealar” asari qo‘lyozmasini olib keldi va Mirzo Abdulvohidga uni ko‘chirishni topshirdi” .

Donish boshlang‘ich ta’limdan so‘ng, guzar maktabida, keyinroq madrasada tahsil olgan. Madrasa xatmidan so‘ng ustozlaridan birining ko‘magi bilan Ahmad Donish Amir Nasrullo saroyiga me’mor va hattot sifatida ishga joylashdi. Ko‘p vaqt o‘tmay u nafaqat naqqoshu-me’mor, balki dono, fozil olim sifatida taniladi. Amir Nasrullo Donishning ziyrakligi, aqlliligini fahmlab, Peterburgga mirzo va ishonchli kishisi sifatida yuboradi. 1857 yilning yozida Nikolay I vafoti munosabati bilan ta’ziya izhori, Aleksandr I ning taxtga o‘tirganini tabriklash uchun bu guruh yo‘lga chiqadi. Guruh sardori elchi mullojon Miroxur edi. Uch oy davom etgan safarda ular sanoat korxonalari, tarixiy va madaniy yodgorliklar, kutubxona, teatr, rasadxona, botanika bog‘i, muzeylar, ilm-fan markazlari bilan tanishdilar. Bu tashrif Donishga ikki davlatni bir-biri bilan qiyoslash imkonini beradi.

Ahmad Donish ko‘rganlarini amirga ta’riflab bersa, uning xikoyalaridan keyin amir davlatda islohot o‘tkazadi, deb umid qilar edi. Chunki amirning o‘zi Donishga rus davlatining ichki ishlarini diqqat bilan o‘rganib kelishni ta’kidlagan edi. Donish hikoyalari amirda qanday taassurot qoldirgani aniq emas edi. U 1860 yilda vafot etadi va uning irodasiz, tadbirsiz o‘g‘li Muzaffar taxtga o‘tiradi. Muzaffar davrida Donishning saroyda nufuzi va ta’siri kamroq bo‘ldi.

ISSN 3030-3907

1866 yil rus podshosi Toshkentga hujum qilib, uni qo‘lga kiritadi. Amir Muzaffar o‘zini islom homiysi hisoblab, rus qo‘shiniga qarshi lashkar tortadi va shu bilan Buxoro va Rossiya o‘rtasida qarama-qarshilikni vujudga keltiradi.

Donish Rossiyaning iqtisodiy va harbiy qudratini yaxshi bilgani uchun Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi jangni foydasiz deb hisoblaydi. Donishning so‘zlariga qaramay, amir dushmanlik munosabatlari-yu, jang otashini tezlatar edi. Natijada Buxoro mag‘lubiyatga uchradi, tuzilgan sulh asosida u Rossiyaga katta tovon to‘ladi, yerlarining katta qismidan mahrum bo‘ldi.

XULOSA. Ahmad Donishning hayoti va ma’naviy merosi Markaziy Osiyo ilm-fanida va madaniyatida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning ilmiy va falsafiy qarashlari, adabiy merosi va ma'naviy g‘oyalari o‘z davrida nafaqat o‘z xalqiga, balki butun Sharq dunyosiga ta'sir ko‘rsatgan. Donish ilmga bo‘lgan yuksak hurmat, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarni saqlashga intilgan, va shu orqali o‘z asarlarida ilm-fan va diniy g‘oyalarni uyg‘unlashtirib, jamiyatni taraqqiy ettirishga qaratilgan.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Donishning ma’naviy merosini ta'lim tizimida kengroq tatbiq etish.

Donishning axloqiy va ma'naviy g‘oyalari zamonaviy ta'limda ko‘proq o‘rganilishi lozim. Uning ilmga, ma’naviyatga va insonparvarlikka bo‘lgan munosabati ta'lim jarayonlarida, ayniqsa, yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda qo‘llanilishi kerak. Donishning asarlaridan olingan darslar milliy ma'naviyatni rivojlantirishda, insoniy qadriyatlarni yuksaltirishda yordam beradi.

Donishning asarlarini turli tillarga tarjima qilish. Donishning ilmiy va ma’naviy merosini nafaqat o‘zbek tilida, balki boshqa tillarga ham tarjima qilish kerak. Bu uning asarlarining global miqyosda tanilishi va qadrlanishini ta'minlaydi, shuningdek, uning g‘oyalari butun dunyo miqyosida o‘rganilishiga imkon beradi.

Donishning ilmiy yondashuvlarini zamonaviy tadqiqotlarda qo‘llash.

Donishning ilmiy metodologiyasini zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda qo‘llash, ayniqsa, tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarda, ilmiy izlanishlarni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Donishning analitik fikrlash usuli, ilmni tizimli o‘rganish va ilmiy yondashuvni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Donishning falsafiy qarashlarini jamiyatda targ‘ib qilish. Donishning falsafiy qarashlarini jamiyatda kengroq targ‘ib etish, uning ma’naviy qadriyatlari va axloqiy g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish orqali milliy va umuminsoniy axloqiy masalalar bo‘yicha samarali natijalarga erishish mumkin. Bu Donishning qadriyatlarini bugungi kunda amaliyotda qo‘llashning zarurligini anglatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Ayniy S. Asarlar. 8 jildlik. - Toshkent: Fan, 1965. 5-jild. - 205 b

ISSN 3030-3907

2. Sadri Ziyo. Navodiri Ziyoiya. Tojik tilidan tarjima, kirish, izohlar muallifi B. Aminov. - Toshkent: Bayoz, 2017. – B. 60.
3. Rajabov Q., Inoyatov S. Buxoro tarixi. - Toshkent: Tafakkur, 2016. – B. 332.
4. Hasanov H. Sayyoh olimlar.T., “Fan”, 1981. – B. 232.
5. R.M.Ahmedov, N.N.Naimov. Buxoro tibbiyoti tarixi. – Buxoro: Buxoro, 2009. – 47 b.
6. Akhmedova Z.A. Ahmad Donish’s ideas on improving public administration // Oriental Journal of Philology. 2021 yil, 31 dekabr 10-18
7. Akhmedova Z.A. Kultur von Turkestan in der zweiten hälfte des 19. jahrhunderts. // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. 2021. - № 1 . – P. 20-29.
8. Axmedova Z.A. Ahmad Donishning falsafiy g‘oyalari. //O‘zbek falsafasi tarixi. III jild. Toshkent: “Muharrir”. – 2000. – B. 143-162.

ISSN 3030-3907